

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2024



No 2

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Elektron nashr. 598 sahifa.

E'lon qilishga 2024-yil 29-fevralda ruxsat etildi.

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
Axmedov Sayfullo Normatovich i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMIB birinchi prorektori
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori
Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori
Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d. TDIU professori
Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., profesor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori
Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori
Musyeva Shoira Azimovna, SamDu IS instituti professori
Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., TAQU katta o'qituvchisi
Xalikov Suyun Ravshanovich, i. f. n., TDAU dotsenti
Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti
Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti
Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti
Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi
Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti
Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.



MUNDARIJA

Ilm-fanga baxshida umr Baxtiyor Islamov	8
Kichik biznesni rivojlantirishda “yashil” iqtisodiyotni keng tatbiq qilishning ahamiyati Gulnora Abdurahmonova Kalandarovna, Sanjar Baxodirovich G’oipnazarov	10
Brand Capital as a Determinant of Institutional Prestige and Student Choice in the Higher Education System ... Zufarova Nozima Gulamiddinovna	16
Inson va atrof-muhit dialektikasi: nomutanosiblik ko’rsatkichlari va ekologik muammolar Butaboyev Maxammadjon Tuychiyevich, Maxmudov Nosir Maxmudovich	24
Yashil budjetlashtirish va uni O’zbekistonda joriy etish istiqbollari Meyliev Obid Raxmatullayevich, Gofurova Kamola Xayrulla qizi	30
Iqtisodiyotda ta’lim va fan integratsiyasining asosiy yo’nalishlari Yormatov Ilmidin Toshmatovich	35
Transport vositalari va yo’llar turizm transport infratuzilmasini rivojlantirishning muhim omilidir Agzamov Shaxboz Akmalovich	39
Bank xizmatlarini raqamlashtirish orqali samaradorligini oshirish A. X. Salamov	44
Biznes-reja baliqchilik xo’jaligi rivojlanishi uchun asos sifatida Dosmurotova Shaxista Kengashovna	48
Mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligi va uning lizing munosabatlari rivojlanishi bilan bog’liqligi Axmediyeva Aliya Toxtarovna	55
Turizmni rivojlantirish imkoniyatlari Ziyadullayev Ilhom Narkabilovich	63
Tijorat banklari depozit operatsiyalari samaradorligini oshirish muammolari va ularni bartaraf etish yo’llari Shamsiyev Nodir Muratovich	67
Hududlarni rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarning samaradorligini oshirish masalalari Shagazatov Oybek bahodirovich	72
Hududlar biznes muhitini rivojlantirish va samarali boshqarish yo’nalishlari Davlatov Sanjar Abdimannonovich	76
Ijtimoiy rivojlanish xulq-atvor paradigmasida yoshlarning tadbirkorlik faoliyatini tartibga solishning nazariy asoslari Mirzatov Baxtiyor Toxirovich	80
Korxonalar innovatsion faoliyatida raqamli transformsiyaning muhim yo’nalishlari Yuldasheva Kamola Miraliyevna	84
O’zbekistonda agroturizmni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish (Buxoro viloyati misolida) Yoriyeva Farangiz Murodillayevna	89
Innovatsion tadbirkorlik muhitini kompleks baholashda xalqaro tashkilotlar tajribasi Nazarova Umida Avazovna	94
Turizm faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish samaradorligini oshirishning ayrim usullari Mirzaxodjayev Alisher Botirovich	98
Globallashuv sharoitida transchegaraviy suv resurslardan samarali foydalanishni boshqirish Mirzayev Musurmon Umidullayevich	103
Surxondaro viloyati iqtisodiyotida kichik biznes va tadbirkorlikning o’rni va ahamiyati Fayziyeva Aziza Azamat qizi	108
Ta’lim muassasalarida xarajatlarni moliyaviy nazorat etishning samaradorligi tahlili Eshonqulov Davlatjon Rajabboyevich	113
Ta’minot zanjirini boshqarishda transport logistikasi usullarini takomillashtirish Zoxidova Nazokat Berdimurot qizi	119
Blokcheyn texnologiyasida xavfsizlik masalalari Mamadiyarov Zokir Toshtemirovich	123
Развитие цифровой трансформации банковского сектора Республики Узбекистан Абдурахманова Матлуба Махаммадиновна	129



Asosiy fondlarni hisoblash va baholash usullarini takomillashtirish istiqbollari.....	135
Rixsimbayev Odiljon Qobiljonovich	
Marketingda tovar harakati tizimini optimallashtirish va modellashtirish	141
Sherzod Xolmurodovich Pardayev, Kamola Abdujabborovna Pardayeva	
Iqtisodiy rivojlanish uchun strategik taqsimlash strategiyalari:	
Investitsion Fond Portfellarning qiyosiy tahlili.....	148
Sultonboeva Munira bahodirovna	
Soliq munosabatlarining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati: ilmiy-nazariy qarashlar.....	154
Axrorov Zarif Oripovich, Saidmurodov Feruz Sodiqjon o'g'li	
Взаимосвязь инвестиционной стратегии с оценкой эффективности инвестиционного проекта	159
С. С. Алиева, А. Назаров	
Erkin iqtisodiy zonalarining faoliyati va boshqaruv mexanizmini takomillashtirish.....	167
Sheraliyeva Saida Azatovna	
Xizmat safari xarajatlari hisobining huquqiy asoslari	170
Ergashev Sarvar Xudoynazarovich	
Инклюзивное образование и его особенности.....	175
Зайнутдинова Умида Джалоловна	
Jismoniy shaxslarning mol-mulk va yer soliqlarini hisoblash va undirish samaradorligini oshirish yo'llari.....	179
Qurbonov Muxiddin Abdullayevich	
Mamlakatda soliq qarzdorligi vujudga kelishining asosiy sabablari va ularni qisqartirish yo'llari.....	184
Hakimov Ulug'bek Furqat o'g'li	
Mulk qiymatini baholash tushunchasi, baholash obyektlari, baholanadigan qiymat turlari.....	188
Izbosarov Boburjon Bahriddinovich, Yoqubboyev Ilhomjon G'ulomjon o'g'li	
O'zbekistonda sug'urta xizmatlarining zamonaviy transformatsiyasi.....	193
G. Adilova	
Biznes subyektlarida samaradorlik masalalarini o'yinlar nazariyasi usuli bilan baholash.....	197
Mardiyev Nurali	
Yengil sanoatda "lean production" konsepsiyasini tatbiq etishning amaliy jihatlar.....	203
Yaxyayeva Inobat Karimovna	
Soliq salohiyatini baholash usullari va ularning tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga ta'siri tahlili	207
Borotov Sharofiddin Jumaqul o'g'li	
Ko'chmas mulk bozorini baholashning institutsional asoslari	213
Ishonqulov Nizamjon Fayzullayevich	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida turizm xizmatlarini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari.....	221
Amriyeva Shaxzoda Shuxratovna	
O'zbekistonning bank-moliya tizimi hamda unda Islom moliyasi	
instrumentlarini jalb etishdagi joriy tendensiyalar	226
Eshimov Alisher Dasmurodovich	
Tashqi savdoda notarif usullarni qo'llashning iqtisodiy oqibatlarini aniqlash	
metodologiyasi (rivojlangan davlatlar tajribasi).....	234
Norqobilov Akobir Iso o'g'li	
Reklama xizmatlari va uning subyektlar samaradorligini oshirishdagi imkoniyatlari.....	240
Rabbimov Elbek Abdulloyevich	
Ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda sog'liqni saqlash tizimini moliyalashtirish asoslari	245
Imonqulov Nuriddin Qo'shmon o'g'li	
Tijorat banklari biznes ekotizimini rivojlantirishning nazariy asoslari.....	250
Shoymardonov Orziqul Jo'ra o'g'li	
Majburiy tibbiy sug'urtaning vujudga kelishi va o'ziga xos xususiyatlari.....	256
Kenjayev Soxib Sayfiyevich	
O'zbekiston Respublikasida zamonaviy soliq ma'murchiligini joriy etish orqali budjet-soliq siyosati	
samaradorligini yanada oshirish.....	260
Yuldasheva Shaxnoza Xojiakbar qizi	
Jahon iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida derivativlar bozorining roli	266
Shokirov Mirkamol Mirolim o'g'li	
Boshqaruv hisobida mas'uliyat markazlarini tashkil etish masalalari.....	274
Sobirov Otabek Olimjonovich	



Davlat moliyasini boshqarishda moliyaviy nazorat usullaridan samarali foydalanish yo'llari	277
Kultayev Farxod Shavkatovich	
Tijorat banklari foydasi va rentabillik ko'rsatkichlariga ta'sir etuvchi omillar tahlilini takomillashtirish	281
Normo'minov Temurbek Sheraliyevich	
O'zbekiston Respublikasida tijorat banklari aktivlar sifatini oshirish yo'llari	284
To'ychiyev Otabek Shamshiyevich	
Venchur kapitalining mohiyati va O'zbekistonda venchur tizimini rivojlantirishning institutsional asoslari.....	288
Tadjibayeva Nigora Gulomjonovna	
Innovatsiyalar: zamonaviy iqtisodiyot uchun innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash zarurati.....	293
Malikova Dilrabo Muminovna, Tursunov Jahongir Ulug'bek o'g'li	
Budjet daromadlarining shakllanishida egri soliqlarning ta'sirini ko'p omilli ekonometrik modellashtrishda tahlil qilish.....	297
Abdunazarova Shahnoza Norqo'chqor qizi	
Aksiyadorlik jamiyatlarida investitsion jozibadorlikni oshirish yo'llari	302
Abdullayev Boburjon Akbaraliyevich	
Barcha tadbirkorlik subyektlariga teng raqobat sharoitini yaratishda soliq imtiyozlarining o'rni	306
Akbarov Akmalxon Akrom o'g'li	
Hisob siyosati va unda biologik aktivlar hisobini yoritib berish tartibini takomillashtirish	310
Mirzayeva Nargiza Batirovna	
Talabalarning oilali bo'lishiga ta'sir etuvchi omillarga iqtisodiy baholashda yangicha yondashuv.....	314
O. U. Shomurodov, A. A. Suyarov, Z. U. Uroqov, J. S. Urazov, A. T. Ablahatov	
Ways to Use the Experience of Foreign Countries in Creating a Beneficial Business Environment for Entrepreneurship And Improving Taxation	319
Mukhlisa Ikramova	
Aholi turmush darajasini oshirishda moliyaviy savodxonlikning o'rni va iqtisodiy rivojlanishga ta'siri	325
Yusupov Muhammadali Soxib o'g'li, J.D. Xojiyev	
Temir yo'l sanoat korxonalarida ijtimoiy-mehnat munosabatlarini boshqarish bo'yicha xorijiy tajriba.....	329
Kadirova Sharofat Amonovna	
Механизм внедрения аутсорсинговой деятельности в АО “Ўзтемирйўлийўловчи”	332
Н. Э. Кахарава	
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish investitsiyalarni jalb qilishda xorijiy mamlakatlar tajribasi	337
Sharipov Bobur Anvar o'g'li	
“STEKLOPLASTIK” MJCHning bozordagi strategik holatini tahlil qilish	342
Musyeva Shoira Azimovna	
Agrar sektorda ekologik toza mahsulotlarni ishlab chiqarishning nazariy masalalari	348
M. Sh. Nazarova, Z. S. Kazakova	
Methodological Foundations of Bank Lending and Classification of Factors Affecting the Features of Obtaining Loans.....	353
Raxmanova Laylo bahodirovna, A. Karimova	
Agrosanoat klasterlarda tovar-moddiy zaxiralar samaradorligini KPI orqali baholash uslubiyati.....	357
Toshpo'latov Azizbek Shermuxamadovich	
Faol tadbirkorlar faoliyatida kambag'al oilalarni iqtisodiy-ijtimoiy holatini yaxshilash imkoniyatlari.....	362
Salamov Ibrohim, Nazarova Maryam Sharifovna, Kazakova Zulayxo Saloxiddinovna, Jonibekov Faxriddin Beknazarovich, Kudratov Rizo Turdibayevich, Ulmasova Oygul Baxtiyorovna, Xamdamova Nasiba Ablakulovna, Xudayberdiyeva Ma'rifat Umarovna	
Xo'jalik yurituvchi subyektlar strategiyasi tahlilining o'ziga xos xususiyatlari	369
Tursunova Shaxnoza Farxod qizi	
Процессы цифровизации АО “Hududgazta'minot”	373
Хусанов Кахрамон Нишонович	
O'zbekistonda aholi turmush darajasini oshirish yo'llari.....	378
Abdullayeva Madina Kamilovna, Eldorbekov G'ofurbek Iskandarbek o'g'li	
Aholi farovonligini oshirishda tadbirkorlik subyektlari uchun kredit tizimini takomillashtirish mexanizmi.....	381
Bobayev Isroiljon Abdinabiyeich	
Mamlakatga jalb qilingan xorijiy kapitalning tovarlar va xizmatlar importi salohiyatiga ta'sirini ekonometrik modellar bilan baholash.....	386
Saydullayev Azamat Jo'raqul o'g'li	



O'zbekistonda bank xizmatlari raqobatbardoshligini baholash mazmuni va o'ziga xos xususiyatlari.....	394
Sh. Madraimov	
Kapital bozorida sug'urta kompaniyalar institutsional investor sifatida	397
Xasanova Lola Mamasharifovna	
Yangi O'zbekiston strategiyasida institutsional islohotlarni yanada chuqurlashtirish va ko'p funksiyali raqamlashtirishning ilmiy asoslari	400
B. B. Berkinov	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari orqali jinoiy yo'l bilan olingan daromadlarni legallashtirish mexanizmlari.....	409
G'afurov Umidjon Bahodir o'g'li	
Rivojlangan mamlakatlarda keksa fuqarolarning bandligini oshirish kam ta'minlangan aholi qatlamini qo'llab-quvvatlash usuli sifatida (Yaponiya tajribasi misolida).....	413
Karimov Bekzodjon Ilxomovich	
Tashqi savdoni oshirishda boj-tarif siyosatini takomillashtirish mexanizmlari	420
Pardayev Ilhomjon G'ulomjon o'g'li	
Финансы или корпоративные финансы	426
Уринов Бобур Насиллоевич	
In Ensuring Economic Development in the Country Green Economy and its Features	432
Akhunova Shakhistakhon Nomonjanovna, Abdusattorova Mokhirabonu Abdugoppor kizi	
Tijorat banklarining investitsiya faoliyatini rivojlantirish yo'nalishlari	437
Jo'rayev O'ktam Panji o'g'li	
Сокращение уровня бедности в Узбекистане.....	443
Амирджанова Ситора Суннат кизи	
Paxtachilik sohasida ishlab chiqarish jarayonlari samaradorligini oshirishning innovatsion yechimlari va uning foydaga ta'sirini baholash	448
S. B. Inoyatov	
Tijorat banklarida muammoli kreditlar bilan ishlash amaliyotidagi muammolar va ularni barataraf etish yo'llari	453
Maxmudov Rahimjon Hamid o'g'li	
Mahalliy budjet daromadlarining nazariy va ilmiy asoslari	460
O'lokulova Feruza Mansurovna	
Kambag'allikni qisqartirish – aholi turmush farovonligini ta'minlashning muhim omili	463
Usmanov Baxodir Baxtiyorovich	
Raqamli marketingni rivojlantirish zaruriyati	469
Xalmuxamedova Zebaxon Babaxanovna	
Tijorat banklari o'rtasidagi raqobatni rivojlantirish orqali fond bozorida aksiyalar narxini barqarorligini ta'minlash istiqbollari	473
M. Yuldosheva	
Konchilik sanoati korxonalarida innovatsion faoliyatni rivojlantirish mexanizmlarining ilmiy-nazariy asoslari	480
Kurbanova Mehriniso Nematjanovna	
O'zbekistonda banklar moliyaviy xizmatlari va ular sifatining amaldagi holati tahlili	487
Mirzayev Mirza Abdullayevich	
Oliy ta'lim muassasalarining iqtisodiy samaradorlikning raqobatbardoshligini institutsional tahlil qilish mexanizmi.....	492
Saydullayeva Saodat Abdumajidovna	
Integrasiya sharoitida to'qimachilik sanoatining rivojlanishi	499
Ziyayeva Muhtasar Mansurdjanovna	
Auditorlik tekshiruvini tashkil etish va o'tkazish jarayonlarini takomillashtirish	503
Karamatova Noiba Husnitdinovna	
Davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning nazariy jihatlarini	510
Mamatov Mamajan Axmadjonovich	
Экономическое сознание и экономическое мышление: теоретический анализ.....	517
Пардаев Мамаюнус Каршибаевич, Мухаммедов Мурод Мухаммедович	
O'zbekiston respublikasi tijorat banklari tomonidan qurilish korxonalarini kreditlashni takomillashtirish yo'llari	522
Sultanov Baxram Begdullayevich	



Роль искусственного интеллекта в современных технологиях медиаобразования в высших учебных заведениях.....	526
Самигова Гуландом Абдужаббаровна	
Talabalarga moliyaviy yordam dasturlari va ularning ta'lim sifatiga ta'siri	534
Mirzayeva Muhlisa Ubaydullo qizi	
Mintaqaviy investitsion jozibadorlik va investitsion siyosat: nazariy talqin	539
Muminov Akmal Tulkunovich	
Mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida oliy ta'lim tizimining ta'siri	543
Nasimov Adiz Azamat o'g'li, Baxtiyorova Jasmina Jasurovna, Axrorov Zarif Oripovich	
Respublikada fermer xo'jaliklarga xizmat ko'rsatishni rivojlantirish va agroxizmatlar bozorini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash imkoniyatlari	548
Shukurov Ilxom Safarboyevich	
Turli mamlakatlarda oliy ta'limni moliyalashtirish yo'llari	555
Umarova Moxigul Maxmayunus qizi	
Dehqonchilikni innovatsion asosda rivojlantirishning xorijiy tajribasi	560
Yuldashev G'iyos Turabekovich	
Tijorat bank xizmat turlarini islomiy bank xizmatlari orqali rivojlantirish istiqbollari	564
Bayjanova Gozsal Sarsengaliyevna	
Qishloq xo'jaligi mahsulotini baholash va hisobga olishning uslubiy jihatlarini takomillashtirish	570
Boltayev Abror Sayitmuradovich	
Секреты интересного урока в начальной школе	577
Гараева Олеся Владимировна	
Iqtisodiyotni barqaror rivojlanishda yashil iqtisodiyotning o'rni	580
Ibragimova Gulchehra Toxirovna	
Mahsulot va xizmatlarni raqamli transformatsiyasini amalga oshirish algoritmi	584
Kucharov Abrorjon Sobirjanovich, Bobojonov Azizjon Babaxanovich, Abdurakhmonov Abdumalik Abdurashidovich	
O'zbekiston Respublikasining soliq tizimi mamlakatda yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish vositasi sifatida	591
Nabiyev Feruz Nurmurodovich	



SOLIQ MUNOSABATLARINING IJTIMOIY-IQTISODIY AHAMIYATI: ILMIY-NAZARIY QARASHLAR

Axrorov Zarif Oripovich

PhD, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali dotsenti

Saidmurodov Feruz Sodiqjon o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali assistenti

Annotatsiya: Iqtisodiy qonuniyatlarning har qanday sharoitida soliqlar bilan bog'liq munosabatlar davlatchilikni tashkil etishdagi ahamiyati alohida e'tirof etilib, ularning aholi farovonligiga xizmat qilishiga alohida diqqat qaratiladi. Mazkur maqola davlat va jamiyatda amalga oshiriladigan soliq munosabatlarini optimallashtirish, soliq to'lovchilar va soliq oluvchilar munosabatlaridagi og'irlik va qulayliklarni tavsifiga bag'ishlangan. Ushbu maqolada soliqlarning jamiyatdagi ijobiy va salbiy ta'siri to'g'risidagi vaziyatlar tahlili aks ettirilgan bo'lib, davlat va jamiyat o'rtasidagi soliq munosabatlarini o'zaro muvofiqlashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: soliq, jamiyat, davlat, soliq munosabatlari, soliq imtiyozlari.

Abstract: In any context of economic legislation, the importance of tax relations in the organization of statehood is recognized, with special emphasis on their contribution to the welfare of the population. This article is devoted to the optimization of tax relations in the state and society, the description of the weight and convenience in the relationship between taxpayers and taxpayers. This article provides an analysis of the situation on the positive and negative effects of taxes in society, and formulates proposals and recommendations for the coordination of tax relations between the state and society.

Key words: tax, society, state, tax relations, tax incentive.

Аннотация: Вопреки проявления возможных условий экономических закономерностей, значение налоговых отношений в организации государственности понимается, как особое значение во вкладе в благосостояние населения. Данная статья посвящена оптимизации налоговых отношений государства и общества, определению веса и удобства в отношениях между налогоплательщиками и налогоплательщиками. Также, в статье проводится анализ положительных и отрицательных влияний налогов на общество, а также формулируются предложения и рекомендации по взаимному согласованию налоговых отношений между государством и обществом.

Ключевые слова: налог, общество, государство, налоговые отношения, налоговая льгота.

KIRISH

Iqtisodiy adabiyotlarda soliqlarning mohiyati va davlat daromadlarini tashkil etishdagi o'rni ko'p marotaba tadqiq qilinganiga qaramay, soliqlarning jamiyat hayotidagi ta'siri hamda iqtisodiy o'sishdagi o'rni borasida bahsli munozaralar ko'p uchraydi. Iqtisodiy qonuniyatlarning har qanday sharoitida soliqlar bilan bog'liq munosabatlar davlatchilikni tashkil etishdagi ahamiyati alohida e'tirof etilib, ularning aholi farovonligiga xizmat qilishiga alohida diqqat qaratiladi. Aytish joizki, davlat va jamiyatda amalga oshiriladigan soliq munosabatlarini optimallashtirish, soliq to'lovchilar va soliq oluvchilar munosabatlaridagi og'irlik va qulayliklarni tavsiflash, shu boisdan soliqlarning jamiyatdagi ijobiy va salbiy ta'siri to'g'risidagi vaziyatlarda ular soliq munosabatlarini o'zaro muvofiqlashtirish muhimdir.

Xorijiy va mamlakatimiz iqtisodiy adabiyotlarida soliqlarning mohiyati va ahamiyati, shuningdek, budjet daromadlaridagi o'rni salmoqli tadqiq qilingan bo'lsa-da, uning jamiyat farovonligi borasidagi ahamiyatini yoritish va rolini oshirish borasidagi ilmiy ishlarning oqsashi kuzatiladi. Umuman olganda, hozirgi globallashtirish sharoitida soliq oluvchilar va soliq to'lovchilar (soliq subyektlari) faoliyatiga kirib kelayotgan og'irlik va qulayliklarni yoritish hamda mavjud muammolarni bartaraf etish bugungi dolzarb masalalardan biridir.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Soliqlar uzoq tarixiy taraqqiyotni bosib o'tgan murakkab va ko'p qirrali iqtisodiy kategoriyadir. Soliqlar daromadlarni taqsimlash va qayta taqsimlash usuli sifatida davlat paydo bo'lishi bilan paydo bo'ldi.

Soliq iqtisodiy-moliyaviy kategoriya hisoblanib, uning mohiyatini idrok etishning qiyinligi uning bir vaqtda iqtisodiy, moliyaviy-xo'jalik va siyosiy-huquqiy ko'rinishga ega ekanligi bilan belgilanadi.

XIX asrda faoliyat yuritgan M.M. Alekseyenko soliqning quyidagi xususiyatiga e'tibor qaratdi: "Soliq, bir tomondan taqsimlash elementlaridan biri va narxning tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, uni tahlil qilish bilan aslida iqtisodiy fan boshlandi. Boshqa tomondan, soliqlarni belgilash, taqsimlash, undirish va ulardan foydalanish davlatning vazifalaridan biridir" ^[1].

Fransuz jamoat arbobi Pyer Jozef Prudon ta'kidlaganidek, "mohiyatan soliq masalasi davlat masalasidir" ^[2]. Ya'ni davlat soliq to'lovlarisiz mavjud bo'lolmaydi, soliqlar esa davlatning majburiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Davlat mavjud joyda soliqlar ham mavjud bo'lib, soliqlarning tabiati davlatning taqdiri va vazifalari bilan belgilanadi.

Bundan tashqari, soliqlarning ko'pligi, ularning mantiqsizligi va adolatsizligi kabi muammolarni faol muhokama qilish orqali soliqqa tortishning nazariy masalalari V.Petti tomonidan sezilarli darajada oydinlashtirildi. Aytish joizki, u tomonidan fuqarolar, korxonalar daromadlarining bir qismini, mulkini va boshqalarni soliqlar shaklida olib qo'yishning salbiy oqibatlarini bartaraf etish yo'llari tadqiq qilindi ^[3].

Klassik siyosiy iqtisodchilar ham soliq nazariyalarining rivojlanishiga katta hissa qo'shdilar. A.Smit va D.Rikardo soliqlar faqatgina davlat budjetining daromad manbayi bo'lib xizmat qilishini hamda ularni undirishning adolatliligi va undirilishining davlatning fiskal ehtiyojlari (raqobatbardosh bozorning ishlashi, pulning xarid qobiliyatining barqarorligini ta'minlash va boshqalar) bilan belgilanadigan qismi bo'yicha nizolar kelib chiqadi, deb hisoblaganlar ^[4].

D.Rikardoning asarlari ichida "Siyosiy iqtisod va soliqqa tortish asoslari" asari alohida o'rin tutadi. Bu asarda soliqlar davlat ixtiyorida bo'lgan mamlakat yer va mehnat mahsulotining ulushini tashkil etishi qayd etilgan ^[5].

F.Nitti o'z asarlarida soliq fuqarolar jamoaviy (ijtimoiy) ehtiyojlarni qondirish uchun davlat va mahalliy hokimiyat organlariga beradigan to'lov deb ta'kidlagan ^[6].

Iqtisodchi olim M. Fridman o'z asarlarida "... soliqlar davlat yoki jamiyat foydasiga undiriladigan majburiy yig'implardir, chunki bu to'lovlar davlat yoki jamiyatning maxsus xizmatlari uchun to'lov emas" ^[7], deb ta'kidlagan.

Bizningcha, me'yoriy-huquqiy hujjatlarda aks ettirilgan soliq tushunchasi zamonaviy voqelikni eng aniq aks ettiradi. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 16-moddasida "Soliqlar deganda Soliq kodeksida belgilangan, O'zbekiston Respublikasining Davlat budjetiga yoki davlat maqsadli jamg'armasiga to'lanadigan majburiy beg'araz to'lov tushuniladi" ^[8].

Soliq to'lovlari hisobidan davlat moliyaviy resurslari shakllanadi va u davlat budjeti yoki davlat maqsadli jamg'armasida to'planadi. Soliqlarning iqtisodiy mazmuni bir tomondan, xo'jalik yurituvchi subyektlar va fuqarolarning, ikkinchi tomondan davlat moliyasini shakllantirishga oid munosabatlari bilan ifodalanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada iqtisodiy tahlilning analiz va sintez, induksiya va deduksiya, taqqoslama kabi an'anaviy usullardan foydalanildi. Xorijiy va mamlakatimiz olimlari va tadqiqotchilarining soliq munosabatlariga doir ilmiy-amaliy qarashlari tahlil qilindi va natijalari asosida xulosalar shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Soliqning mohiyati va tabiatini o'rganish har doim soliqqa tortish manbasini izlash va soliqning tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga va umuman xalq xo'jaligi kompleksining rivojlanishiga ta'sir qilish darajasini tahlil qilish bilan bog'liq bo'lgan. Binobarin, soliqning iqtisodiy mohiyatini o'rganish birinchi navbatda ishlab chiqarish va taqsimot o'rtasidagi munosabatlarni o'rganish bilan bog'liq. Ilk davrlardan hozirgi kunga qadar iqtisodiy munosabatlar tizimida soliqlarning tutgan o'rnini o'rganish mahalliy va xorijiy tadqiqotchilarning doimiy diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Ularning aksariyati soliqlarning shakllangan davridan to hozirgi kungacha asosiy maqsadi davlatning moliyaviy ehtiyojlarini qondirishdan iborat deb hisoblaydi.

Soliqning iqtisodiy tabiatini tadqiq qilish davlatchilikning paydo bo'lishi va rivojlanishi haqidagi ta'limot bilan bevosita bog'liq, chunki soliqqa tortishning real jarayoni aynan davlat tomonidan amalga oshiriladi va uning shakllari davlatning yetuklik va sivilizatsiya darajasiga bog'liq.

Boshqaruv shakllarining shakllanishi va evolyutsiyasi doimo soliq islohotlari bilan birga kelgan. Tarixdagi ko'plab dalillar shuni ko'rsatadiki, soliqlarning yuqoriligi natijasida davlat budjetiga tushumlarning umumiy miqdori kamayib ketgan, soliq stavkasini pasaytirish esa birdaniga emas, balki asta-sekinlik bilan undirish hajmini oshirish imkonini bergan. Ya'ni, har qanday sharoitda u yoki bu ta'sir davlatning muayyan soliq siyosatining natijasidir.



Davlat qanchalik ko'p mavjud bo'lsa, soliqlar ham shunga mos ravishda shunday uzoq vaqtdan beri mavjud bo'lib, iqtisodiy nazariya esa soliqqa tortish mexanizmlarini bekor qilish va boshqasini o'zlashtirish munosabatlarini uyg'unlashtirish nuqtai-nazaridan optimal soliq siyosatini joriy etish yo'llarini izlaydi.

Shunday qilib, davlat uchun soliqlarning obyektiv zarurligi quyidagilar bilan izohlanadi:

- Bozor iqtisodiyoti munosabatlarini aks ettiruvchi qonunlarni qabul qilinishi bilan;
- Turli mulk shaklidagi xo'jalik subyektlarini va erkin narxlarni amal qilishi aholi bilan xo'jalik subyektlari o'rtasida faqat qonuniy, huquqiy, demokratik munosabatlarini shakllanishi bilan;
- Markazlashgan ma'muriy taqsimotdan o'z-o'zini moliyalashtirishga, iqtisodiy ko'rsatkichlarni xo'jalik subyektlarida mustaqil taqsimotini va rejalashtirilishini amalga oshirilishi bilan;
- Bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'tish bosqichlarida xo'jalik subyektlari faoliyatida yuz berishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklar, ishlab chiqarish hajmini pasayishi yoki faoliyatni to'xtatib qo'yilishi budjet daromadlarini pasayishi va ularni qoplash uchun salmoqli daromadlar bo'lishini ta'minlash faqat egri soliqlar orqali hal etilishi bilan.

Soliqlar davlat daromadlarining asosiy manbalaridan biridir. Shuning uchun davlat ularning hajmini oshirishdan bevosita manfaatdor. Har qanday qiyosiy tendensiya soliqlarning fiskal funksiyasining ustuvorligining oshirishini ham ko'rsatadi.

Soliqlarning maqsadi nafaqat soliq majburiyatlarini qonuniy ravishda minimallashtirish, balki korxonaning ishlab chiqarish faoliyati samaradorligini oshirish, mumkin bo'lgan minimal soliq yukini ta'minlaydigan optimal biznes modelini yaratishdir.

Iqtisodiyotda soliq munosabatlarini takomillashtirish uni modernizatsiyalashning eng yorqin ko'rinishlaridan biri hisoblanadi. Bu avvalo, milliy va xorijiy investitsiyalarni jalb etish, aholi farovonligini ta'minlash kabi muhim ijtimoiy muammolarni ham hal etish imkonini beradi. Shu boisdan ham soliq munosabatlarini optimallashtirish va boshqa iqtisodiy kategoriyalar bilan uyg'unligini ta'minlash juda muhim masalalardan biridir.

Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va texnik yangilash jarayonlariga xizmat qiladigan soliq munosabatlarini tartibga solish masalalari eng ilg'or texnologiyalar bilan jihozlangan va xom ashyo resurslarini chuqur qayta ishlash hamda raqobatbardosh tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni ta'minlaydigan, mamlakatimiz eksport-import salohiyatini tartibga solish hamda yangi ish o'rinlarini yaratishga xizmat qiladigan yangi sanoat korxonalarini tashkil etishga xizmat qiladi. Vaholanki, sifati va narxi bo'yicha jahon bozorida raqobatbardosh bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini kengaytirish va yangi mahsulot turlarini o'zlashtirishga moliyaviy munosabatlarni tartibga solish orqaligina erishiladi.

Mamlakatdagi infratuzilmalarni raqobatbardoshligini sifatli innovatsion mahsulotlarni ishlab chiqarish bilan ta'minlashda, tarkibiy qayta qurishlarni amalga oshirishda soliqlarni tartibga solish mexanizmi o'ta muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Ma'lumki, soliqlar orqali tartibga solish keng ma'noda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot omili sifatida maydonga chiqadi ^[9]. Soliqlar bir tomondan davlat budjeti daromadlarini to'ldirishni amalga oshirsa, ikkinchi tomondan jamiyat a'zolari daromadlarini qayta taqsimlanishini aks ettiradi.

Aynan soliqlar orqali ham iqtisodiy o'sishga, ham pasayishga ta'sir etish mumkin. Mamlakat soliq tizimi investitsiyalar uchun qulay muhit yaratishi, biznes innovatsiyalarini rag'batlantirishi va uzoq muddatli barqaror ekologik siyosatni ham yaratishi uchun ham xizmat qilishi lozim ^[10].

O'zbekistonda amal qilayotgan soliq imtiyozlari tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga, ayrim ijtimoiy masalalarni hal etishga qaratilgan, biroq ayrim iqtisodchi olimlar imtiyozlarning salbiy jihatlarini mavjudligini ham ta'kidlashadi ^[11-12]. Ya'ni soliqdagi imtiyoz berish tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash bilan birga, tadbirkorlarni soliqdan qochib qolish yo'llarini ham olishi, shuningdek, soliq imtiyozlarini xizmat ko'rsatuvchilarni loqaydlikka, boqimandalik kayfiyatiga tushib qolishiga sabab bo'lishi mumkin.

Amalda soliq imtiyozlari jamiyat uchun innovatsion sohani rivojlantirishni rag'batlantirish yo'nalishida takomillashtirish ularni optimallashtirishning muhim yo'nalishi sifatida qaralmog'i lozim. Bunda ta'kidlash joizki, innovatsion jarayonlar yuqori darajadagi noaniqliklar bilan bog'langanligini e'tiborga olgan holda ilmiy-tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlarini rag'batlantirish tizimini soliq imtiyozlari taqdim etish orqali takomillashtirishning o'ziga xos yo'nalishlarda amalga oshirilishi muhimdir.

Soliqlar obyektiv taqsimlash munosabatlari orqali kengaytirilgan ishlab chiqarishning barcha bosqichlarida ishtirok etadi va ishlab chiqarish munosabatlarida o'z aksini topadi. Soliqlar jamiyat iqtisodiy bazasini ifodalashi tufayli ishlab chiqarishni qiziqitirishda, tovar ishlab chiqarish orqali iste'molni tartibga solish va markazlashtirilgan pul jamg'armalarini yuzaga keltirish ulardan ijtimoiy himoya va boshqa ijtimoiy zaruriy maqsadlar yo'lida keng foydalanib kelinmoqda.

Umuman olganda, soliq yukini optimallashtirishga qaratilgan bir qator vazifalarni hal qilish kerak:

- asosiy soliq to'lovlarini qonuniy asoslarda minimallashtirish;



- prognoz davridagi soliq yuki darajasini aniqlash;
- kelgusi moliya yilida budjetga va budjetdan tashqari jamg'armalarga to'lanishi lozim bo'lgan soliq majburiyatlari miqdorini aniq to'lovlar doirasida va umuman ular bo'yicha belgilash;
- ishlab chiqarishning umumiy xarajatlarini hisoblash va korxona biznes-rejasining moliyaviy qismini puxta ishlab chiqish;
- soliq to'lovlarining hisoblanishini monitoring qilish va ularning o'z vaqtida va to'liq to'lanishini ta'minlash.

Shuni ta'kidlash kerakki, soliqlar korxonada strategik va taktik (joriy) rejalashtirishdan iborat vazifalarni bajaradi:

1. Strategik soliqlarni rejalashtirish bilan korxonaning tashkiliy-huquqiy shaklini, uning joylashgan joyini, tadbirkorlik faoliyatining turlari va yo'nalishlarini hamda amaldagi soliq rejimlarini tanlash amalga oshiriladi. Bu bosqichda nafaqat eng imtiyozli soliqqa tortish rejimi pozitsiyasidan kelib chiqib, balki ikki tomonlama soliqqa tortish va boshqalarni bartaraf etish maqsadida ham qarorlar qabul qilinadi. Ushbu bosqich doirasida kapitalni taqsimlash, investitsiya siyosati va moliyalashtirish strategiyalari aniqlanadi;
2. Taktik (joriy) rejalashtirish bilan keyingi hisobot davri uchun barcha turdagi soliqlar bo'yicha hisob-kitoblar amaldagi qonunchilik doirasida ularning hajmini optimallashtirish va minimallashtirish uchun qonun hujjatlarida nazarda tutilgan barcha imkoniyatlardan foydalangan holda amalga oshiriladi.

Soliqlarni rejalashtirish obyekti, nafaqat soliqqa tortish obyektlari, balki soliq solinadigan bazani shakllantirishga ta'sir qiluvchi boshqaruv faoliyati jarayonlaridir. Soliqlarni rejalashtirish zarurati amaldagi soliq qonunchiligi bilan belgilanadi, unda turli soliq rejimlari, soliq solinadigan bazani hisoblash usullari va soliq imtiyozlari nazarda tutiladi. Nazariy nuqtai-nazardan soliqni rejalashtirish obyektlarini quyidagilarga bo'lish mumkin:

- mulkiy yoki nomulkiy huquqlar. Masalan, o'z mulkiga ega bo'lish yoki boshqa birovning mulkidan foydalanish;
- subyektning harakatlari. Masalan, tovarlarni sotish yoki import qilish;
- iqtisodiy faoliyat moliyaviy natijalari. Masalan, kompaniyaning daromad yoki foyda olishi.

Soliqni rejalashtirish avvalo, soliq to'lovlarini maqbullashtirishni anglatadi. Soliqlarni maqbullashtirish bu – soliq to'lash xarajatlarini kamaytirish orqali moliyaviy natijalarga ega bo'lish yoki soliq to'lovlarini oshirmagan holda, ko'proq tushumga ega bo'lish demakdir.

Soliqni korxonalar kesimida rejalashtirishdan quyidagi maqsadlar ko'zlanadi:

1. Soliqlarni eng minimal darajada to'lashga harakat qilish (soliq qonunchiligi doirasida);
2. Soliq to'lashning optimal holatini tanlash. Masalan, optimallashtirilgan tizimda yoki umumiy tartibda soliq to'lashni tanlash; soliq imtiyozlaridan foydalanishdan voz kechish (ayrim hollarda bu korxona uchun qulay bo'lmasligi mumkin); soliqqa tortish tizimining qulayligiga qarab, tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxs sifatida ro'yxatdan o'tish yoki yuridik shaxs sifatida faoliyat yuritish qulay bo'lishi mumkin.
3. Soliq to'lovlari muddatlarini o'z manfaatidan kelib chiqib taqsimlash. Bunda soliqlar qonuniy belgilangan muddatlarda to'lanmay, jarima va penyalari to'lash korxona uchun afzalroq deb qaralishi mumkin.

Amaliyotda soliqlarni rejalashtirishda quyidagi uch yo'ldan birini tanlash muhimdir:

- *birinchisi*, rejalashtirishning klassik turi, uning mohiyati soliqlarni o'z vaqtida to'liq, to'g'ri to'lashni bildiradi. Bunda buxgalteriya va boshqa hisobotlar aniq va to'g'ri yuritiladi, qonunchilikka aniq rioya qilinadi;
- *ikkinchisi*, soliq to'lovlarini rejalashtirishning optimallashtirilgan varianti. Bunda soliq to'lovchi kamroq soliq to'lash maqsadida amaldagi qonunchilik imtiyozlaridan va boshqa imkoniyatlaridan foydalanib, o'zining iqtisodiy faoliyatini rejalashtiradi va tashkil qiladi. Bunda soliq to'lovchi amaldagi qonunchilikning barcha yutuq va kamchiliklaridan, shu jumladan, murakkablik, nomukammallik va qarama-qarshilik holatlaridan foydalanadi;
- *uchinchisi*, soliqlarni kamaytirishning noqonuniy yo'li. Iqtisodiy moliyaviy vaziyat yomonlashgan sharoitlarda tadbirkorlar ikki muqobil yo'ldan birini tanlaydilar: soliqlarni to'lashdan qochish (daromadlarni faoliyatlarini, oborotlarni yashirishi) yoki bankrotlik e'lon qilish. Ko'p hollarda birinchi yo'l tanlanadi. Bunda tavakkalchilikka yo'l qo'yiladi. Korxona ko'proq foyda ko'rib qolishi mumkin, ammo bu soliq nazorati bizning nazarimizda kuchli sharoitda salbiy oqibatlarga olib kelishi muqarrardir.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Ilmiy tadqiqot olib borish natijasida quyidagi xulosa va takliflar shakllantirildi:

1. Soliqlar bir tomondan davlat budjeti daromadlarini to'ldirishni amalga oshirsa, ikkinchi tomondan jamiyat a'zolari daromadlarini qayta taqsimlanishini aks ettiradi.
2. Mamlakat soliq tizimi investitsiyalar uchun qulay muhit yaratishi, biznes innovatsiyalarini rag'batlantirish va uzoq muddatli barqaror ekologik siyosatni ham yaratishi uchun ham xizmat qilishi lozim.
3. Soliq siyosati jamiyat farovonligiga xizmat qilishi hamda budget tushumlarini kamaytirmasligiga xizmat qilmog'i lozim
4. Soliqlarga imtiyoz berish tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash bilan birga tadbirkorlarni soliqdan qochib qolish yo'llarini ham ochishi, shuningdek, xizmat ko'rsatuvchilarni loqaydlikka, boqimandalik kayfiyatiga tushib qolishiga sabab bo'lishi mumkin. Shu boisdan soliq imtiyozlarini optimallashtirishga qaratilgan soliq siyosatini yuritish lozim.
5. Soliq imtiyozlari jamiyat uchun innovatsion sohani rivojlantirishni rag'batlantirish yo'nalishida takomillashtirish, ularni optimallashtirishning muhim yo'nalishi sifatida qaralmog'i lozim
6. Inson omili kamayishini inobatga olib davlat budjetidan xarajatlarni kamaytiruvchi, korrupsiya va ta'magirlik holatlarini keskin pasaytiruvchi, soliq hisobi va nazorati to'liq avtomatlashtiriladigan, soliqlarni to'liq davlat budjetiga tushishi ta'minlanadigan soliq tizimidagi blokcheynlarni keng yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq.
7. Bugungi kunda aholini soliq madaniyatini oshirish, soliq qonunchiligidagi o'zgarishlarni yetkazish muhim masalalardan biridir. Shu bois har bir viloyat (shahar, tuman) mahallalarida (mahalla fuqarolar yig'ini a'zolari ko'magida) bir oyda bir marotaba soliq savodxonligi kunini o'tkazish, unga viloyat soliq idoralari va ta'lim muassasalari mutasaddi o'qituvchilarini keng jalb etishga erishish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Баринов А. С. Налог и налоговая деятельность государства. Вестник Кыргызско-Российского Славянского университета. – 2012. – (11), – с. 22-25.
2. Твердохлебова М. В. Организация и методика учета расчетов с бюджетом. //Научные труды студентов Горского государственного аграрного университета. Студенческая наука-агропромышленному комплексу. 2019. – с. 246-248.
3. Петти У. Трактат о налогах и сборах. –М.: Эконов-Ключ, –1993. –352 с.
4. Иохин В. Я. Экономическая теория: учебник. –М.: Экономистъ, –2008.
5. Рикардо Д. Сочинения: в 5 т.: пер. с англ. / под ред. М. Н. Смит. М.: Госполитиздат, 1955 [Электронный ресурс] http://publ.lib.ru/ARCHIVES/R/RIKARDO_David/_Rikardo_D.html
6. Горский И. В. О налоговом регулировании, налоговых льготах и функциях (историко-методологический аспект). Экономика. Налоги. Право. – 2014. (3). – с. –17-22.
7. Митрофанова И. А., Митрофанова И. В., Тлисов А. Б. Налогообложение прибыли хозяйствующих субъектов: потенциал модернизации. Монография. М.: Берлин: Директ-Медиа. – 2014. – 229 с.
8. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 31.12.2019 y., 02/19/SK/4256-son; 11.03.2020 y., 03/20/607/0279-son.
9. Minford L. Tax, regulation and economic growth: a case study of the UK. – Cardiff Economics Working Papers, 2015. – №. E2015/16.
10. Vermeend W., Van Der Ploeg, R., & Timmer, J. W. Taxes and the Economy. Books. Edward Elgar Publishing, 2008.
11. Kuziyeva N. O'zbekiston iqtisodiyotini tartibga solishda soliq imtiyozlari ta'sirining tahlili //Arxiv nauchnix issledovaniy. – 2020. – №. 24.
12. Malikov T. Soliq yukining og'irligini keskin kamaytirish kerakmi? – T.: A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 2006. 32-b.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.